



**“TASDIQLAYMAN”**  
**Buxoro davlat universiteti**  
**rektori \_\_\_\_\_ O.X. Xamidov**

**2023-yil «21» sentabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING 2023/2024 O‘QUV YILI**  
**2 - YIG‘ILISH QARORLARI**

**2023-yil «21» sentabr**  
**Soat 08:30**

- Raislik qiluvchi:** – **O.X. Xamidov – Buxoro davlat universiteti rektori, kengash raisi**
- Qatnashdilar:** – Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI:**

**I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:**

**O.X. Xamidov** Kengash a‘zolari va universitet jamoasini 1-oktabr O‘qituvchilar va murabbiylar kuni bilan tabriklash;

Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasini professori, t.f.d. Inoyatov Sulaymon Inoyatovich «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlash;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor, mehnat shuhrati ordeni sohibi Rajabov Qahramon Kenjayevichni “Buxoro davlat universiteti faxriy professori” unvoni bilan taqdirlash;

Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o‘qituvchilar, ta‘lim – tarbiya jarayonida yutuqlarga erishgan turli tanlov g‘oliblarini taqdirlash;

Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, p.f.d., professor Ma‘murov Bahodir Baxshullaevichni Buxoro davlat pedagogika instituti rektor lavozimiga tayinlanganligi munosabati bilan tabriklash va universitet Sport faoliyati va pedagogika fakultetiga A.SH. Inoyatovni dekan lavozimiga tayinlash.

**Asosiy masalalar**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning**  
**BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutq - ilgari surilgan**  
**tashabbuslar to‘g‘risida**

**O.X. Xamidov, A.A.Amonov, R.G.Jumayev, A.T. Jo‘rayev**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasining umumsiyosiy munozaralari boshlandi. Unda O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Shavkat Mirziyoyev global va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida hamjihatlik va amaliy hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qo'ygan holda mamlakatlarni jipslashtirish zarurligini qayd etdi.

"Biz o'tgan yili umumiy xavfsizlik va taraqqiyotga qaratilgan "Samarqand birdamlik tashabbusi"ni ilgari surdik. Asosiy maqsadimiz mamlakatlarimiz va xalqlarimizning bugungi kuni va istiqboli uchun mas'uliyatni har tomonlama chuqur anglash, ochiq va konstruktiv hamkorlikka tayyor barcha tomonlarni global muloqotga jalb qilishdan iborat", – dedi O'zbekiston yetakchisi.

Davlat rahbari global va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Qayd etilishicha, iqtisodiyotni liberallashtirish yo'lidagi yana bir ustuvor vazifa – yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish.

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatda 2017-yildan buyon kambag'allik ikki barobarga kamaydi. 2030-yilgacha uni 7 foizga tushirish reja qilingan.

"Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan "Ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori" borasidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlaymiz. Mazkur tashabbus doirasida tajriba almashish uchun 2024-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida "Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo'l" butunjahon konferensiyasini yurtimizda o'tkazishni taklif etaman", – dedi O'zbekiston yetakchisi.

Davlat rahbari O'zbekiston bundan buyon ham Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik, barqarorlik, o'zaro hamkorlik va rivojlanish muhitini mustahkamlash yo'lidan qat'iy borishini qayd etdi.

Uning so'zlariga ko'ra, mamlakat va uning barcha qo'shnilari birgalikdagi sa'y-harakatlar tufayli davlat chegaralari, transport koridorlari va suvdan foydalanish bo'yicha muammolarni bartaraf etishga muvaffaq bo'ldi.

Mintaqa davlatlari o'rtasida o'zaro savdo ikki yarim barobardan ziyod, qo'shma korxonalar soni esa besh marta o'sdi. Mintaqa iqtisodiy rivojlanish markaziga, Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'laydigan transport-kommunikatsiya ko'prigiga aylanib, unga qiziqish tobora ortib bormoqda.

"Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usi birlashtirmoqda va bu tuyg'u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo'limiz yo'q va bo'lishi ham mumkin emas!", – dedi prezident.

Mamlakat "Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Xotin-qizlar" tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdorligi ta'kidlanib, birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazish taklif qilindi.

O'zbekiston tomonidan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo'lida ko'rilayotgan choralar, mintaqadagi iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri va suv bilan ta'minlanganlik darajasining kamayish tendensiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirildi.

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo'yicha maxsus vakili lavozimi ta'sis etilishi, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasi yaratilishi va mintaqada qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilishi qo'llab-quvvatlandi.

"Bu borada "Markaziy Osiyo iqlim muloqoti"ni joriy etishni maqsadga muvofiq, deb

hisoblayman. Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz. Uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo‘lib o‘tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilishni taklif etamiz, – dedi O‘zbekiston prezidenti.

Jahon miqyosida dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyalarini keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekistonda YUNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazini tashkil etish taklif qilindi.

Buyuk olimlarning boy merosini o‘rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida 2024-yil O‘zbekistonda “Islom – tinchlik va ezgulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusi ilgari surildi.

Afg‘on xalqiga insonparvarlik yordami ko‘rsatishni susaytirmaslik lozim, degan fikrni bildirib, prezident Afg‘onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlarini bu yurtdagi o‘tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqirdi.

"Bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etadigan, qo‘shnilari va boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq Afg‘oniston kerak", – dedi davlat rahbari.

Prezident BMTning yuksak minbaridan turib dunyo hamjamiyatini Afg‘oniston muammosini hal etish yo‘lida birlashishga va bu borada BMT rahnamoligida Afg‘oniston bo‘yicha birgalikda ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchan va konstruktiv pozitsiyani belgilashga chaqirdi.

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi mazmun-mohiyati bo‘yicha berilgan ma‘lumotlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Universitet rahbar-xodimlari, professor-o‘qituvchilari hamda faol targ‘ibotchi yoshlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi mazmun-mohiyatini universitet va joylarda keng targ‘ibot-tashviqot qilish.

3. Ushbu 78-sessiyasidagi nutqda ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar bo‘yicha Buxoro davlat universiteti tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilash

4. 78-sessiyasidagi nutq mazmun mohiyatini universitet jamoasida o‘rganib bo‘yicha o‘quv seminarlar tashkil etish

5. 78-sessiyasidagi nutq mazmun mohiyatini universitet rahbar-xodimlari, professor-o‘qituvchilari hamda talaba-yoshlarni OAVlarida muntazam chiqishlarini tashkil etish

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamga qoldiraman

---

**2023-yil davomida amalga oshirilgan xorij safarlar to‘g‘risida ma‘lumot va yaqinda safardan qaytgan professor-o‘qituvchilar hisobotlari**

**A.T.Jo‘rayev, M. Qilichev**

Ushbu masala bo‘yicha **kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU xalqaro hamkorlik departamenti boshlig‘i M.H. Qilichovning va taqdimot qilgan professor-o‘qituvchilarning ma‘lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. Xorijiy safarlarni amalga oshirgan professor-o‘qituvchilar hisobotlari kafedra, fakultet kengashlarida doimiy tinglab borilsin va ularning o‘zlashtirgan tajribalari kafedralar kesimida professor-o‘qituvchilar, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar, talabalarga yetkazilsin.

3. O'quv yili davomida professor-o'qituvchilar uchun xorijda malaka oshirish, stajirovka o'tash, konferensiya va loyihalarda grant dasturlari doirasida qatnashishlari qo'llab quvvatlansin va tanlovlar to'g'risidagi ma'lumotlar universitet ijtimoiy tarmoqlarida keng yoritilsin.

4. Ushbu qaror ijrosi xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T.Jo'rayev, O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'. Jumayev, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov zimmasiga yuklansin.

---

## Turli masalalar

### **1-kursga tavsiya etilgan abituriyentlarning kontrak tulovlarini 2023-yil 15-oktabrgacha etib belgilash to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev** (O'quv ishlari bo'yicha prorektor, 2023/2024 o'quv yili qabul komissiyasi mas'ul kotibi). Xabarlaringiz bor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorining 2 bandiga asosan Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, ota-onalar va abituriyentlar tomonidan tushgan murojaatlarni qondirish maqsadida 2022/2023 o'quv yili uchun o'qishga tavsiya etilgan abituriyentlar, o'qishini ko'chirayotgan (qayta tiklayotgan) talabalar hamda yuqori bosqich(2,3,4,5 kurs) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun to'lov-kontrakt mablag'larini to'lashning oxirgi muddatini 2023-yilning 15-noyabrga qadar uzaytirishni taklif etaman.

–Ushbu masala bo'yicha axborot tugadi. Marhamat, axborot bo'yicha qanday savol va takliflar bor?

Ushbu masala yuzasidan kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirib, talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini ota-onalar va talabalar tomonidan tushgan murojaatlarni qondirish maqsadida uzaytirishni taklif etishdi.

– Buxoro davlat 2022/2023 o'quv yili uchun o'qishga tavsiya etilgan abituriyentlar, o'qishini ko'chirayotgan (qayta tiklayotgan) talabalar hamda yuqori bosqich(2,3,4,5 kurs) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun to'lov-kontrakt mablag'larini to'lashning oxirgi muddatini 2023-yilning 15-noyabrga qadar uzaytirish to'g'risidagi taklifni ovozga qo'yaman.

Rozilar – 75 nafar

Qarshilar – yo'q

Betaraflar – yo'q

**Yuqoridagilarni inobatga olib, Kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor, 2022/2023 o'quv yili qabul komissiyasi mas'ul kotibi R.G'. Jumayevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022/2023 o'quv yili uchun o'qishga tavsiya etilgan abituriyentlar, o'qishini ko'chirayotgan (qayta tiklayotgan) talabalar hamda yuqori bosqich(2,3,4,5 kurs) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun to'lov-kontrakt mablag'larini to'lashning oxirgi muddatini 2023-yil 15-noyabrga qadar uzaytirilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat etish Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.U.Rashidov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining Buxoro davlat universiteti bilan hamkorlikda 2023-yil 3-5 oktyabr kunlari bo‘lib o‘tadigan “Yadroviy tibbiyot” mavzusidagi xalqaro konferensiyasini o‘tkazish haqidagi taklifi ko‘rib chiqish to‘g‘risida**

**Eshitildi:** M.H. Qilichov (Xalqaro hamkorlik departamenti boshlig‘i) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 09.09.2023 yildagi PQ-298-son “O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligiga bag‘ishlangan yubiley tadbirlarini o‘tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorining 2- ilovasi, 3- bandi “Buxoro viloyatida “Yadroviy tibbiyot” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish” deb nomlanib, Konferensiyani yuqori saviyada o‘tkazish vazifalari yuklatilgan.

Ilm-fan sohasida muhim ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotganini, soha xodimlari va olimlarga bo‘lgan e‘tibor yanada oshirilayotganini, Fanlar akademiyasining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi yuksak o‘rni va ahamiyatini inobatga olib hamda Fanlar akademiyasi tashkil topganligining 80 yilligiga bag‘ishlangan yubiley tadbirlarini yuqori darajada tashkil etishda universitet ishtiroki hankorlikni yanada rivojlantiradi. Bugungi kunda universitet Fizika-matematik fakultetida ushbu sohada tadqiqotlar sohasida bir qancha olimlar va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqda va ushbu konferensiyalarda ularning ishtiroki tajriba va amaliy bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, ushbu konferensiyani o‘tkazishda Buxoro davlat universitetining ham tashkiliy masalalarda hamkor sifatida ishtirok etishlarini ko‘rib chiqishingizni so‘rayman.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a‘zolari o‘z taklif va fikrlarini bildirishdi.

**Kengash raisi O.X.Xamidov kengash a‘zolaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining Buxoro davlat universiteti bilan hamkorlikda 2023-yil 3-5 oktyabr kunlari bo‘lib o‘tadigan “Yadroviy tibbiyot” mavzusidagi xalqaro konferensiyasini o‘tkazish haqidagi taklifini ochiq ovoz berish yo‘li bilan qo‘l ko‘tarib tasdiqlab berishni so‘radi.**

Kengash a‘zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab quvvatladilar.  
Qarshilar va betaraflar bo‘lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 09.09.2023 yildagi PQ-298-son qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining Buxoro davlat universiteti bilan hamkorlikda 2023-yil 3-5 oktyabr kunlari Buxoroda bo‘lib o‘tadigan “Yadroviy tibbiyot” mavzusidagi xalqaro konferensiyasini o‘tkazishi ma‘qullansin.
3. Konferensiyani yuqori saviyada tashkillashtirish uchun mo‘ljallangan xarajatlar (transport, ekskursiya, kofe-breaklar, xorijiy mehmonlar uchun rejalashtirilgan sinxron jihozlar va qo‘shimcha vositalar, konferensiya zallarini bronlash, ovqatlanish, tarqatma materiallar va ularni chop qilish, 10 nafargacha mehmonlarning tunash xarajatlarini qoplash) barchasi universitet budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplansin.

Ushbu qaror ijrosi xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T.Jo‘rayev, O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor T.H. Rasulov zimmasiga yuklansin

**Kengash kotibi**

**N.G.Dilova**